

MAQOM SAN'ATI VA ZAMONAVIY MUSIQIY TA'LIMNING YANGI YUZLARI

Yunus Rajabiy nomidagi O'z.MMSI "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası
dotsent v.b. **Utkur Kadirov**

utkirkadirov@gmail.ru

Annotatsiya: Maqolada maqom san'ati va uning zamonaviy musiqiy ta'limdagi o'rni, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashuvi, pedagogik metodlar va zamon talablariga javob beruvchi ta'lim tizimining ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada musiqiy pedagogikaning innovatsion yondashuvlari, o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va maqom san'ati sohasidagi o'zgarishlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Maqom san'ati, Musiqiy ta'lim, Innovatsion yondashuvlar, Musiqiy pedagogika, Maqomni o'rgatish, Musiqiy texnologiyalar, Ijodiy rivojlanish

Аннотация: В статье рассматривается роль искусства макама в современной музыкальной педагогике, гармония традиционных и инновационных подходов, важность применения педагогических методов и системы образования, соответствующей требованиям времени. В статье анализируются инновационные подходы в музыкальной педагогике, педагогическая компетенция преподавателей и изменения в области искусства макама.

Ключевые слова: Искусство макама, Музыкальное образование, Педагогическая компетенция, Система «учитель-ученик», Музыкальная педагогика, Преподавание макама, Музыкальные технологии, Творческое развитие

Annotation: The article discusses the role of maqom art in modern music education, the integration of traditional and innovative approaches, the importance of applying pedagogical methods, and the education system that meets the demands of the time. The article analyzes innovative approaches in music pedagogy, pedagogical competence of educators, and changes in the field of maqom art.

Keywords: Maqam art, Music education, Innovative approaches, Traditional and modern methods, Teaching maqom, Music technologies, Creative development

KIRISH

An'anaviy sozandalikni kasb etish niyatida bo'lgan har bir cholg'u sohibi albatta bir ustozni etagini tutib, ustozdan ijrochilik, sozandalik sirlari va tajribalarini o'zlashtirishga intilgan. Xalqimizda bu amaliyot, albatta, o'zining qat'iy qoidalariga ega bo'lib, o'ziga xos an'analarga asoslanadi. Qadimdan bizga ma'lumki, musiqiy qobiliyat, cholg'u imkoniyatiga ega bo'lmaganlar bu kasbga murojaat etishmagan, aksincha, bunday qobiliyatga ega bo'lganlar esa o'z ustozlariga hurmat va mehr ko'rsatib, barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, sohaga oid bilimlarni o'rganishga

va unga sadoqatli bo'lishga intilishgan. Sozandalikda eng muhim xususiyatlardan biri ham shu deyish mumkin.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqining ham o'ziga xos milliy qadriyatlari, o'tmishi, tarixi davomida shakllanib, rivojlanib kelgan musiqiy, ma'naviy va adabiy merosi bor. O'zbek musiqasi merosining har tomonlama mukammalligi va ma'naviy boyligi hamma uchun ayon. Ma'lumki, har qanday milliy meros avlodlardan-avlodlarga o'tib kelgan. Bu, albatta, og'zaki tarzda asrlar davomida xalqimizning ma'naviyatini shakllantirgan va amaliyot rivojiga xizmat qilgan. Milliy qadriyatlar zamon talabiga mos ravishda, urf-odatlar, mehnat va hayot jarayonlari o'zgara- o'zgara, an'anaga aylanib boraveradi. Milliy musiqamizning shakllanish jarayonida xalq an'analari muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, mavjud an'analarni bir-birini to'ldiruvchi va alohida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib kelgan.

Musiqiy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bu — “ustoz-shogird” tizimi. Bu uslub, qadimdan boshlanib, musiqiy bilimlarni avlodlarga o'rgatishda eng samarali usul bo'lib kelgan. Ustoz san'atini o'rgatish jarayonida shogird nafaqat musiqaning texnik tomonlarini, balki uning chuqur ma'naviy va estetik qirralarini ham o'zlashtiradi. Maqom san'atining o'rgatish usuli o'ziga xos bo'lib, bu san'atga oid qoidalar, nafaqat musiqiy ijro, balki badiiy talqin, janr va uslubni ham talab etadi.

Bugungi kunda musiqiy ta'limning ta'siri nafaqat san'atning texnik jihatlarini o'zlashtirish bilan cheklanadi. U zamonaviy pedagogik uslublar bilan boyitilishi zarur. An'anaviy metodlarni zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, musiqiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik va ijodiy salohiyatini oshirish zarurati tobora dolzarb bo'lmoqda. Bu borada ta'lim tizimini yangilash, o'quv jarayonida mustahkam nazariy asoslarni yaratish, shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Bugungi kunda jahon madaniyati bilan integratsiya va zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash orqali, maqom san'atini yangi avlodga o'rgatish masalasi dolzarb bo'lib, musiqiy ta'lim tizimida o'zgarishlar va takomillashtirishni talab etadi. Yangi avlodni zamonaviy talablar va ilg'or usullar asosida tarbiyalash, milliy musiqani yanada rivojlantirish, ayniqsa maqom san'atini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish borasida kuchli talab mavjud. Bu borada Prezidentimizning maqom san'atini takomillashtirishga oid qabul qilgan qaror va farmonlari muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, azaliy ijro an'analari asnosida yangi ijodiy yo'nalishlar yaratish va mumtoz musiqani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu qarorlar sohada yangicha munosabatni shakllantirib, maqom san'ati va musiqiy ijrochilikni kelajakda yanada yuqori darajaga olib chiqish uchun asos yaratmoqda. Davlatimizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yosh avlodni hozirgi zamon talablariga javob beradigan, yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalash masalasi aniq belgilangan. Bu dasturlar orqali

musiqiy ta'lim tizimi modernizatsiya qilinib, yuqori malakali musiqachilarni tayyorlash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirda, musiqiy ta'limda zamonaviy pedagogik uslublar va texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Bu esa nafaqat musiqa ijrochiligining texnik jihatlarini o'zlashtirish, balki uning badiiy va estetik qirralarini ham mukammal darajada rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa ijrochiligi, xalq musiqasi ijodiyoti va uning janrlari asosida rivojlanadi. Ijro an'analarni saqlash va kengaytirish, yangi ijro uslublarini shakllantirish, musiqiy san'atni yanada boyitish ijrochilik amaliyoti jarayonida muhim o'rin tutadi. Ijro an'analari va yo'llari, tarixan, og'zaki tarzda avlodlardan-avlodlarga o'tib kelgan. Ushbu jarayon, asosan, "ustoz-shogird" an'analari negizida rivojlanib, kelajak avlodlarga yetib kelgan. Bu an'ana musiqiy ijrochilikda o'ziga xos o'rinni egallab, nafaqat ijro usullarini, balki musiqaning badiiy qirralarini ham o'rgatgan. Maqom cholg'u ijrochilik ta'limi bizga o'ziga xos ustoz-shogirdlik maktablari orqali yetib kelgan. Bu an'analarda o'ziga xos tarzda rivojlanib, ijrochilik san'atining eng muhim poydevoriga aylangan.

Adabiyotlarda ham maqom san'ati va "ustoz-shogird" an'anasining rivojlanishi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu an'analarda, milliy musiqaning saqlanishi va rivojlanishi uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda musiqiy ta'lim va ijrochilikda mustahkam o'rin egallagan. Shunday qilib, maqom san'atini o'rgatishda va rivojlantirishda, an'analarga tayanish, zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash, musiqa ta'limini yangicha usulda olib borish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy musiqiy ta'lim o'qituvchisi yuqori darajadagi ijodiy salohiyatga ega bo'lishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Musiqiy kompyuter texnologiyalari ning tez rivojlanishi, musiqiy pedagogikaga integratsiya qilish va yangi metodologiyalarni qo'llash o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarni zamonaviy musiqiy vositalardan samarali foydalanishga o'rgatish, ularda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va yangi musiqiy shakllarni yaratish uchun undash muhimdir. Bu, o'z navbatida, nafaqat musiqaning texnik jihatlarini o'rgatish, balki uning estetik va hissiy tomonlarini ham o'zlashtirishga imkon yaratadi.

Maqom san'ati o'zining tarixiy ahamiyatiga ega bo'lib, ko'plab asrlar davomida shakllanib, yuksak badiiy darajaga yetgan. Shunday bo'lsa-da, zamonaviy ijrochilikda maqomni o'rgatishda yangi usullarni qo'llash zarur. Ushbu jarayonda san'atning an'anaviy shakllarini saqlab qolish, lekin ularga zamon talablariga mos ravishda texnologik imkoniyatlar bilan boyitish muhimdir. Bu esa nafaqat musiqaning texnik, balki uning estetik va badiiy qirralarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqom san'ati ustozlari, yosh shogirdlarini faqat musiqiy texnikaga o'rgatib qolmasdan, balki ularning estetik didini rivojlantirish, xalq musiqasining falsafiy, ma'naviy va estetik jihatlarini anglatishga ham alohida e'tibor qaratishlari zarur. Shogirdlar musiqiy ijodning sirlari bilan tanishib, ijodiy mustaqillikka erishishga intilishlari kerak. Zamonaviy musiqiy ta'lim o'qituvchilarining eng muhim

xususiyatlaridan biri bu pedagogik kompetensiyadir. O'qituvchining nafaqat musiqiy bilimlari, balki pedagogik mahorati, yosh avlodni ma'naviy va estetik jihatdan shakllantirish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Har bir musiqiy ta'lim o'qituvchisi, ayniqsa maqom san'ati kabi murakkab va o'ziga xos san'atni o'rgatish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Kelajak musiqiy o'qituvchilari nafaqat musiqaning nazariyasini, balki ijro san'ati va uning badiiy talqinlarini ham o'zlashtirishi lozim. Ular musiqaning nafaqat texnik, balki hissiy va estetik tomonlarini o'rgatib, shogirdlarni har tomonlama rivojlantirishlari kerak. Shuningdek, o'quv jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish, musiqiy mashqlarni diversifikatsiyalash, jamoaviy ijroni rivojlantirish kabi jihatlar ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy musiqiy ta'lim o'qituvchilari yangi texnologiyalarni qo'llash, ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish va o'quvchilarga zamon talablariga mos musiqa o'rgatish borasida keng imkoniyatlarga ega. Buning uchun ta'lim tizimini yangilash, yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiiq etish zarurati tobora oshib bormoqda.

Maqom san'ati, o'zining chuqur tarixiy, estetik va badiiy ahamiyati bilan nafaqat o'zbek xalqining, balki butun jahon musiqiy merosining ajralmas qismidir. Uning kelib chiqishi, rivojlanishi va bugungi kunga qadar o'zgarish an'analarga asoslanishi xalqimizning madaniy xazinasini yanada boyitgan. Maqomni o'rgatish jarayonida esa zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash, texnologik yutuqlardan foydalanish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurati dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Maqom san'ati bo'yicha ta'lim berish, an'analarga hurmat bilan qarab, zamon talablariga mos tarzda yangilanayotgan yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Bugungi zamonaviy musiqiy ta'lim tizimi, ayniqsa maqomni o'rgatishda, yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o'z ichiga olgan pedagogik yangilanishlarni talab etadi. Musiqiy kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, o'qituvchilarning malakasini oshirishda muhim vositaga aylangan.

XULOSA: Musiqiy pedagogika sohasida integratsiya qilish va yangicha metodlarni qo'llash o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda katta yordam beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga zamonaviy musiqiy vositalardan samarali foydalanish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, yangi musiqiy shakllar yaratish imkoniyatini beradi. O'quvchilarning nafaqat texnik, balki estetik va hissiy jihatlarni ham o'zlashtirishlari zarur bo'ladi.

Maqom san'ati o'rganishda esa an'anaviy usullarni saqlab qolish va ularni zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan boyitish, musiqaning barcha qirralarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Maqomni o'rgatishda, ustozlar nafaqat musiqaning texnik tomonlarini o'rgatib, balki ularning estetik didini rivojlantirish, musiqaning falsafiy va ma'naviy jihatlarni ham tushuntirishga katta e'tibor qaratishlari kerak. Bu nafaqat maqom san'ati, balki xalq musiqasining

umumbashariy ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shogirdlar musiqiy ijodning sirlari bilan tanishib, ijodiy mustaqillikka erishishga intilishlari kerak.

Zamonaviy musiqiy ta'limda o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi, innovatsion yondashuvlarga ochiqligi, texnologiyalardan samarali foydalanish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi jihatlar muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar o'z malakalarini doimiy ravishda yangilab borishlari, o'quvchilarga nafaqat musiqaning texnik, balki hissiy va estetik tomonlarini ham o'rgatishlari zarur. Bu nafaqat musiqiy texnika va nazariyani, balki musiqaning ruhini, uning badiiy kuchini va xalqning ma'naviy dunyosini anglashni ham o'rgatadi.

Shunday qilib, maqom san'ati va musiqiy ta'lim tizimining rivojlanishi an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish orqali yanada boyib, o'quvchilarga o'z ijodiy salohiyatlarini to'liq namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Maqomni o'rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash, texnologik imkoniyatlar va estetik, hissiy talqinlarni muvofiqlashtirish musiqiy ta'limning sifatini yanada oshiradi va o'quvchilarning musiqaga bo'lgan e'tiborini yanada chuqurlashtiradi. Bu jarayon xalqimizning musiqiy merosini yangi avlodlarga yetkazishda, uning yaxlitligini saqlashda va rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori
3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. "Yangi pedagogic texnologiyalar" darslik
4. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quvslubiy majmua. Toshkent: 2016.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
6. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O'bek xalq muzikasi.(I-V) Toshkent. 1965
7. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т.,2006
8. Zufarov A.M. The contribution of eastern alloms in the formation of the maqamlar veil system //Spanish journal of innovation and integrity impact factor- 7,985(63-65 bet.)
9. Zufarov A.M. Maqomlar asosida bastalangan asarlar: Saidjon Kalonovning "topmadim" asari misolida //Oriental Art and Culture jurnali ISSN 2181-063x scientific methodical journal volume 4 issue 5 / october 2023.
10. Muminova Guzal Igamovna. (2024). TEACHING THE PERFORMANCE OF MAQAM INSTRUMENTAL MUSIC: REFLECTIONS

AND SUGGESTIONS. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 6(11), 220–223. <https://doi.org/10.37547/tajjir/Volume06Issue11-14>

11. Muminova G. HONORARY WOMEN IN UZBEK ART //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 244-247.

12. Муминова, Г. (2024). ВОПРОС ОБ ОЦИФРОВКЕ ХОРЕЗМСКИХ МАКОМОВ ЗАПЕЧАТАННЫХ В ПЕРФОКАРТАХ . Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(12), 532–535. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/62710>

13. Муминова Гузал Игамовна О ВКЛАДЕ ФАКИРИ В БУДУЩЕЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА КАК ЛИЧНОСТИ И КАК ПОЭТА // Проблемы Науки. 2021. №4 (161). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-uklade-fakiri-v-budushee-muzykalnogo-iskusstva-kak-lichnosti-i-kak-poeta>